



ta'lrim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish[2] orqali ta'lrim oluvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirilishi ta'kidlab o'tilgan. Bu kompetensiyalar orasida subyektiv rivojlantirish kompetensiyasi ta'lrim oluvchining keyingi faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatishi ko'plab tadqiqotlarda asoslab berilgan.

ASOSIY QISM

Ta'lrim tizimida subyektiv rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar va bir qator uslubiy ishlarda subyektiv nazorat va rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Subyektiv nazorat va rivojlantirishning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati, ilm-fan yutuqlaridagi o'rni bo'yicha Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Maxmud Qoshg'ariy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimiz asarlarida keltirib o'tilgan. Kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishda subyektiv rivojlantirishning muhimligi A.Muslimov, Sh.Abdullaeva, D.N.Arzikulov, R.X.Djuraev, U.K.Tolipov va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Rus olimlaridan V.V.Davlyarov, A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn, G.K.Selevko kabilarning tadqiqotlarida subyektiv nazorat tushunchasining mazmuni, mohiyati va tuzilishi keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'rta maxsus ta'lrim muassasalari talabalarida subyektiv nazorat kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha V.A.Abakumov, kasbiy subyektiv nazorat kompetennsiyasini shakllantirish bo'yicha S.V.Babinalar ilmiy izlanish olib borgan. Ye.I.Artamonova, L.K.Grebenkina, L.P.Illarionova, L.S.Podimovalar innovatsion kompetentlikni rivojlantirishda shaxsning subyektiv rivojlantirishi samarali vosita sifatida ta'riflandi.

Pedagogni innovatsion faoliyatga tayyorlash shaxsiy-strategik jihatdan tahlil etiladi va bunda shaxsning subyektiv rivojlantirishga mavjud, dolzarb hamda potensial imkoniyatlari va qobiliyatlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan, ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligining tarkibiy asoslari sifatida subyektiv rivojlantirish, subyektiv namoyon etish kabilardan iborat ekanligini qayd etadi.

Ilmiy-falsafiy va psixologik tushunchalarni tahlil etish shuni ko'rsatdiki, ilmiy bilimlar shakllanishining hozirgi zamon bosqichida subyektiv nazorat, o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi harakatlantirish va boshqa ko'plab "o'zini o'zi" qo'shimchasi qo'shilgan tushunchalardan faol foydalilanildi. "O'zini o'zi" atamashunosligini yuzaga kelishi va ularning faol qo'llanilishi falsafiy, psixologik va pedagogik fikrlashda biror burilish paydo bo'lganligini ko'rsatadi. Talabaning subyektiv nazorat kompetensiyasi kasbiy o'zini o'zi belgilash va o'zining o'quv-kasbiy faoliyatini ongli ravishda amalga oshirish asosida o'zining imkoniyatlarini namoyon etish tajribasi yoki qobiliyati hisoblanadi [3].

Subyektiv nazorat uchun, avvalo o'zini atroficha chuqur o'rganish, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olish lozim, bu subyektiv o'rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarur. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan



taqqoslamay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi. Eng avvalo o'zida qobiliyatning qanday xislatlari borligini o'rganishi kerak. Biror bir faoliyatga muhabbat yuksak kishi shu ishga chin ko'ngildan berilib ishlaydi, hech qanday formalizmga yo'l qo'ymaydi. O'z kasbini sevgan inson doimiy ravishda g'oyaviy-siyosiy saviyasini oshirish va bilim doirasini kengaytiradi, o'z sohasini chuqur bilish ustida qunt bilan ishlaydi. Demak, ta'kidlab o'tilganidek, subyektiv nazorat o'z faoliyatini taxlil qilishdan va o'z shaxsini takomillashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi o'z ustida ishlashi, subyektiv nazoratda quyidagi uslublardan foydalanadi:

1. Subyektiv bilish: o'zini kuzatish; o'z xarakatlarini tahlil etish; o'z-o'zini sinash; o'rtoqlarining fikrini tushuna olish.

2. O'ziga baho berish: o'zini kuzatish; o'ziga tavsif berish; subyektiv taqdirlash va b. Subyektiv nazorat shaxsni tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi, u o'z shaxsiy fazilatlarini tahlil qilishga, xatti-harakatlarini o'ylashga o'rgatadi. Subyektiv nazorat qilish uchun o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy odatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishini kuzatib boradi. Subyektiv baholash o'qituvchini, o'z imkoniyatlarini baholashda, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi. O'qituvchi subyektiv nazorat bilan birga o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy-siyosiy ongini doimiy ravishda rivojlantirib, pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi.

Bu yo'nalishda M.I.Kalininning o'qituvchilarga qilgan murojaati ayniqsa katta ahamiyatga ega. U "o'qituvchi o'zini butun kuch-quvvatini, imkonini, o'zida bor hamma qimmatbaho narsalarni o'z o'quvchilariga, xalqqa beradi. Ammo, o'rtoqlar, agar siz o'zingizda bor narsalarning hammasini bugun, ertaga, indinga bersangiz-u, lekin o'zingizda bunda o'z bilimlaringizni, o'z kuchingizni, o'z quvvatingizni yana va yana to'ldirib bormasangiz, u holda o'zingizda hech narsa qolmaydiku, axir. O'qituvchi, bir tomonidan, o'zida borini beradi, ikkinchi tomonidan, o'ziga xalqdan, hayotdan, fandan hamma yaxshi narsalarni olib hazm qiladi va bu hamma yaxshi narsalarni yana yangidan bolalarga beradi"[4].

Demak, o'qituvchi faoliyati bumeranglik yani, o'zaro tezkor qaytar aloqa asosida kechadi. Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan, shuningdek, o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga va ularni umumiylashtirishga harakat qiladi. Agar shaxs izlansa, o'z qobiliyatları ustida ishlasa, o'zidagi yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, uning obro'si, mavqeyi ham shu darajada yuksaladi va doimo el nazarida bo'ladi. O'qituvchi o'zida kuzatuvchanlikni, g'amxo'rlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchining mustaqil bilim egallashi va malakasini oshirishi zaruriy shartlardan bo'lib, sharq mutafakkirlari "o'qituvchi o'zi o'qib tursagina – o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'htatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi", deb bildirgan fikrlari ayni haqiqat. Iroda va xarakterni shakllantirishda subyektiv nazorat katta ahamiyatga ega. O'qituvchilik



faoliyatida o'qituvchi xarakteri muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda iroda, histuyg'ularini boshqarish orqali subyektiv nazoratda ma'lum natijalarga olib kelishi lozim. Bunda o'zini idora eta olish, yaxshi kayfiyat, o'ziga buyruq berish, ishontirish, shaxsiy rejimga rioya qilish va o'z qoidasiga ega bo'lish lozim bo'ladi. L.N.Tolstoy subyektiv nazoratda quyidagi qoidalarga amal qilgan shaxsni shunday tavsiflaydi: "...nima belgilasa, hech narsaga qaramay tezkorlik bilan bajarar, nimani bajarsa yaxshi bajarar, doimo aqliy, o'z imkoniyati doirasi asosida faoliyat ko'rsatishga xarakat qilardi". U.G.Shuls faraziga ko'ra, subyektiv nazoratda quyidagi vazifalar katta ahamiyatga ega: bir kunlik yoki xafatalik ish rejasini tuzish, uni bajarish; umidsizlikka tushmaslik, kamchiliklarni bartaraf etish; o'ziga, muvaffaqiyatga ishonish; "men o'zimga ishonaman", "men buni qilishni xohlayman", "men qila olaman" kabi subyektiv ishontirish formulasini qo'llash[5].

Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda o'z ustida ishlash va subyektiv rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Subyektiv rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi. Demak, subyektiv nazorat – insonning o'zini shaxs sifatida to'la namoyon etishga yo'naltirgan ongli faoliyati. Subyektiv nazorat faoliyatning maqsadlarini aniq anglashni va uning mavjudligini, ideallar va shaxsiy yo'nalganlikni nazarda tutadi[6]. Ma'lumki, insoniyatni kamolotga chorlovchi imkoniyatlar shunchalik ko'PKI, ularga erishish maqsadlari intilishida sabr-toqat bilan o'z ustida ishlash orqali erishishi mumkinligini ko'plab dalillarda ko'ramiz. Buyuk nemis pedagogi D.Distverg har bir o'qituvchi subyektiv nazoratni o'z oldiga sharafla vazifa qilib belgilashi lozimligini ta'kidlab o'tadi[7].

Rus pedagogi A.B.Lunacharskiy esa, "Pedagog o'zida insoniyat idealini shakllantirishi lozim"ligini aytib o'tgan. Aynan insoniyatning go'zal fazilatlarini o'zida shakllantirish har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligining poydevorini tashkil etadi. Ushbu poydevorda pedagogning kasbiy mahorati o'z ustida ishlash tufayli kundankunga o'sib borishi mumkin. O.Yu.Smidt umrining har bir daqiqasidan sermahsul foydalanagan olim sifatida doimiy subyektiv nazorat bilan shug'ullanib, inson imkoniyatlari keng ekanligini isbotladi. A.A Lyubishev esa, inson uchun yomon, bo'sh, ortiqcha vaqt bo'lishi mumkin emas, u o'z umrining daqiqalarini ongli holda hisoblashdan qo'rmasligi kerakligini ta'kidlaydi. K.D.Ushinskiy subyektiv nazorat orqali quyidagilarga erishish mumkinligini bildiradi: xotirjamlik, so'zda ishonch va to'g'rilik, xatti-harakatga mulohaza bilan yondoshish, qatiylik, o'zi xaqida sababsiz biror og'iz gapirmaslik, lozim narsalardangina foydalanish, har kuni kechasi o'ziga o'zi hisobot berish, biror marotaba maqtanmaslik va hokazo. Shuni aytish joizki, ko'plab insonlar o'zining bebafo vaqtini bekorga o'tkazib yuboradi. Inson o'z odatlarning bir xillik kun tartibi xukmronligi ta'siriga kirib, o'zining rejalarini kechiktirib yuboradi. Subyektiv ishontirish, sobit qadam iroda orqaligina o'zining qobiliyatlarini namoyon etishga erishish mumkin.



O'zini tarbiyalashning psixologik sharoitlardan biri o'z-o'zidan norozilik bo'lib, uni L.N.Tolstoy, "men telba, o'zgalarga qizig'i yo'q, chidamsiz va bolalardek uyalchanman", deya bildirgan kinoyasidan ham bilish mumkin. O'z ustida ishlash bu mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi tushuniladi. Mutaxassisning o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rindi: kasbiy BKMni takomillashtirib borish; faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondoshish; kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish; ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish; salbiy odatlarni bartaraf etib borish; ijobiy sifatlarni o'zlashtirish va hokazo.

Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichi uzviy, tizimli shaklda olib boriladi, jumladan, birinchi bosqichda o'z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi, ikkinchi bosqichda esa, yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qaror qabul qiladi, uchinchi bosqichda qabul qilingan qaror bo'yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlaydi, to'rtinchi bosqichda xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intiladi va so'nggi beshinchi bosqichda qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib boradi. Pedagogning quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o'z ustida ishlashini ifodalab beradi: aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish; pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish; izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish; ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish; faoliyatiga fantexnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish; kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish; salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash va hokazo. Shaxs innovatsion kompetentligining ko'rsatkichlari bo'lib insonning hodisalarga ta'sir etishi, hodisalarni boshqarish, ulardan subyektiv rivojlantirishi uchun foydalanish qobiliyatları xizmat qilishi mumkin. Innovatsion kompetentli pedagogning faoliyati aynan shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, unda ta'lim oluvchilarga o'zgarib borayotgan ijtimoiy makonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda o'zlashtirilgan bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qila olish, masalalarni tezkor hal qilish, o'zining barcha qobiliyatlarini ro'yobga chiqara olish ko'nikmalari o'rgatiladi. Chunki uchinchi ming yillikda mehnat bozori kuchli raqobat va iqtisodiy ehtiyoj muhiti sharoitida kadrlar tanlashga alohida e'tibor berib, ularni jiddiy saralamoqda. Ish beruvchilar mutaxassislarning nafaqat bilim darajasini, balki to'plagan tajribasini, subyektiv rivojlantirish yo'lida yangi bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmasini ham baholashmoqda[8].

Shunday qilib, raqobatbardosh iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar sharoitida ta'lim tizimida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Kasbiy faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish asosida kasbiy-pedagogik kompetentlikning muayyan sifatlari namoyon bo'ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy



kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, uslubiy, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog subyektiv izchil rivojlantirib borishi va bunda maxsus innovatsion dasturlar joriy etishi lozim, bu albatta, katta amaliy yordam beradi. Zero, bu kabi dasturlar orqali mutaxassisda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jamiyat taraqqiyotida ta'limgardagi mazmunini, maqsad vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tuzum ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy taraqqiyot o'z yo'nalishini belgilashda yosh avlodga "nimani o'qitish kerak, qanday o'qitish kerak va kimlar o'qitishi kerak?" kabi jamiyat oldidagi ko'ndalang qo'yiladigan savollarga javob izlab kelgan. Mazkur savollarga javob topish, ya'ni ta'limgardagi yangilash, uning tizimini, mazmunini qayta qurish, yangi holatga yo'naltirish Respublikamizning ustuvor yo'nalishlaridan biri va bu, albatta, keng qamrovli, bosqichma-bosqich ravishda amalga oshadigan jarayon. Yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, ahloq va odobni yaxshilash zarurati ta'limgardagi davrida shakllanadi. Bu holatni ta'limgardagi oluvchining o'zi anglab yetishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalalarini egallagan xolda o'zini-o'zi tarbiyalash va rivojlantirishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limgardagi mazmunini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'limgardagi standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz
3. Babina S. V. Formirovanie kompetensii professionalnogo samorazvitiya studentov vuza: avtoref. kand. ped. nauk. S. V. Babina. - M., 2009. -24 s.
4. Pirmuxammedova M. Pedagogik mahorat asoslari. T.: 2001.
5. Sultonova G. Pedagogik mahorat. T.: 2001.
6. Sharipova G.N. Pedagogik ta'limgardagi klasteri sharoitida talabalarda subyektiv nazorat kompetensiyasini shakllantirish / ped. fan. fals. dokt. diss. T.: 2021. -B. 21-23.
7. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent, 2004.



8. Babadjanov S.S. Pedagogika oliy ta'lif muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi («Informatika va axborot texnologiyalari» o'quv fani misolida): p.f.b.f.d (PhD) disser.... Toshkent, 2018.